



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 12 (14)
2025**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 12-son 2025 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

12

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Редкоземельные металлы в новой геоэкономике: глобальные стратегии и приоритеты развития республики Узбекистан.....	7
Tursunov A.M. Совершенствование экономических механизмов функционирования отрасли.	18
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida reklama faoliyati samaradorligini aniqlashning uslubiy jihatlari.....	21
Axunov M.A. Korxonalarda raqobatbardoshlikni baholash uchun tanlangan omillar.....	24
Исраилова Д.К. “Аёллар дафтари” маҳаллабай тизими - аёллар бандлиги ва фаровонлигини таъминлаш омили сифатида.....	28
Шокирова Г.М. Критерии разделения целевой аудитории в сфере цифрового маркетинга.....	33
Vaxtohunova D.N. Bank omonatlari bo‘yicha marketing strategiyalari va ularning real daromadlikka ta’siri.....	36
Xasanova X.F. Investitsilar hisobiga asoslangan xolatda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tashkil etish tartibi.....	41
Бегимова Д.К. Разработка отраслевых стратегий в Узбекистане.....	45
Mirzayev B.S. CBDC joriy etilishining moliyaviy barqarorlikka ta’siri: imkoniyatlar va xatarlar....	50
Mirzarahimova A.A. Raqamli texnologiyalar asosida sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari.....	53
Азимов О.Т. Ҳалол молиялаштириш инструменти сифатида мурабаха: анъанавий кредит билан қиёсий таҳлил.....	56
Халмирзаев А.А. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ихтисослашувини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари.....	62
Шоабдурахимова М.М. Повышение производственной эффективности на предприятиях электронной промышленности на примере Artel Electronics (Узбекистан).....	68
Xolmuratov O.T. Futbol maktablarimiz rivojlanishida xorij mamlakatlari menejmenti va marketingi tajribasi.....	72
Yarashev M.O., Nabieva S.A. Aksiyadorlik jamiyatlarini asosiy va moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari.....	76
Кабилова К. Тадбиркорлик соҳасида коррупциянинг олдини олиш амалиётининг бугунги ҳолати таҳлили.....	80
Махмудова С. Бюджет соҳасини коррупциядан ҳимоя қилишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий чоралари.....	85
Захидова Ш.Ш. Университет барқарорлигини таъминлашда унинг фаолиятини халқаро стандартларга мос келадиган тартибда такомиллаштириш.....	89
Saidaxmedov N.X. Raqamli texnologiyalar asosida engil sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish mexanizmlari.....	97
Усманова С.С. Влияние государственной поддержки и регулирование на развитие инноваций на промышленных предприятиях.....	100
Madrahimov U.A. Iqtisodiy o‘shish va kapitaldan samarali foydalanishni optimallashtirish yo‘nalishlari.....	104
Джалилов Д.А. Капиталнинг ялпи ички маҳсулотдаги улушини баҳолаш.....	108
Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность как медиатор трансформационного экономического роста: теоретические основы.....	111
Mahmudov Sh.N. Location and development of industrial sectors in the regions.....	115
Ustadjalilov D.R. O‘zbekistonda klasterlarni rivojlantirishning institutsional asoslari transformatsiyasi: direktiv modeldan bozor tamoyillariga.....	119
Гайбуллаев Ф. Олий таълимда коррупцияга ўрин бўлмаслиги керак!.....	125
Abdurazakova F.D., Normurodov X.E. Aholi moliyaviy savodxonligi va moliyaviy madaniyati o‘rtasidagi oshirish imkoniyatlarini baholash.....	129
Muxtarov M.M. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida sanoat klasterlarini shakllantirish modellari: O‘zbekiston uchun istiqbollar.....	136
Ro‘zmatov B.Z., Shodiyeva N.H. Turistik infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajriba va uning taqqoslovchi tahlili.....	140

Rahmatova N.A., Mustafayeva H. O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimining muammolari va hal etish yo‘llari.....	147
Ахмедов Х. Тинчлик ва хавфсизлик — барқарорлик, иқтисодий ўсиш ва фаровонлик гарови.	154
Boboyev A.Ch. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari.....	159
Исраилов З.А. Яшил иқтисодиёт технологиялари: халқаро тажриба ва қиёсий таҳлил.....	165
Ikromov A.Sh. Mahalliy korxonalarda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....	169
Ҳалмирзаев А.А., Қодиров Б.Ш. Ёшлар бандлигини таъминлашнинг хорижий тажрибалари.....	175
Elmurodov Sh.Sh. A framework for integrating fiscal risks into the assessment of regional financial security.....	183
Axmadjonov S.S. Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab – quvvatlashni baholash mezonlari.....	188
Sabirova Z.U. Sanoat va sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi jarayonlarini tahlil qilishga uslubiy yondashuv.....	192
Pardayev T.N., Alimuxamedov Sh.R. Chetdan olib kelinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashni takomillashtirishning ayrim masalalari.....	197
Кадыров А., Исхаков А.К., Турсунова Н.Х. Реализация механизма стратегического управления акционерного общества «Узавтосаноат» на основе прогнозирования его развития.....	203
Zoxidov T.M. Moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan (BHMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tkazishning muammolari va yechimlari.....	211
Nabiyeva N.M. Turizm xizmatlari bozorida hududiy destinatsiyalar samaradorligini o‘rganish.....	216
Sharofiddinov Sh.U. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mhxs asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni axborot manbai sifatidagi afzalliklari.....	221
Nurmatov Z.Sh. O‘zbekiston respublikasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning iqtisodiy ahamiyati va amaliy dolzarbligi.....	225
Содиқов А.М., Зокиров С.С. Саноатни модернизациялаш ва диверсификациялашнинг янги стратегияси.....	230
Narmanov U., Ikromova S. Fond bozorlariga xorijiy investorlarni jalb qilishni rag‘batlantirish yo‘nalishlari.....	238
Qutbiddinov A.B. Samarali faoliyat imkoniyatlarini amalga oshirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan foydalanish darajasi va uni oshirish imkoniyatlari.....	241
Qayumova Sh.S. Mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini belgilovchi omillar va ularni oshirishning vertikal integratsiya asosidagi optimallashtirilgan modeli.....	246
Turebekov A.A. Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy sifatining tahlili.....	252
Kurbanova M.N., Azizov A.A. Qadimgi klassik iqtisodiy maktablarning shakllanishi va ularning zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta‘siri.....	255
Samadova G.S. O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘sishga ta‘siri.....	259
Абдуллаева Р. Инклюзив тадбиркорликнинг моҳияти ва хориж тажрибаси.....	264
To‘uchiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqarishning dolzarbligi.....	268
Amnah Saeed J Alhindi The role of financial resources in ensuring corporate financial stability.....	272
Fayziyev O.R. O‘zbekistonda baliqchilik klasterlarini moliyalashtirishning hududiy va tarmoq xususiyatlari.....	276
Алимов Р.А., Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность и искусственный интеллект: многоуровневая модель и фигура нового интеллектуала.....	280
Teshayev Z.J., Muxitdnov Sh.X. Logistika xizmat ko‘rsatish korxonalarini resurslaridan foydalanishning hududiy iqtisodiy rivojlanishiga ta‘siri.....	284
Xaydarov X.U., Raxmonov D.R. 1907-yilgi moliyaviy inqiroz: sabablari, kechishi va jahon moliya tizimiga ta‘siri.....	288
Солижонов М.А. Ўзбекистон монетар сиёсатининг савдо балансига таъсирини баҳолаш....	292
Rejarov X.X. Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlari.....	297

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TARKIBIY O‘ZGARISHLARNING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI

ВЛИЯНИЕ СТРУКТУРНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ

THE IMPACT OF STRUCTURAL CHANGES IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN ON ECONOMIC GROWTH

Samadova Go‘zal Solik qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Iqtisodiyot fakulteti Bank ishi yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston misolida davlatlar iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlar darajasi va iqtisodiy o‘shish tahlil qilingan. Turli sohalarda ular o‘rtasidagi mutanosiblik ko‘rib chiqilgan. Xususan, sanoat va qishloq xo‘jaligidagi ularning har ikkisiga ta’siri mavjud bo‘lgan tashqi omillar tadqiq qilingan. Bir qator olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari o‘rganilib mavzuga aloqador jihatlari aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston iqtisodiyoti, tarkibiy o‘zgarishlar, iqtisodiy o‘shish, diversifikatsiya, sanoat, bozor islohotlari, raqamlashtirish, iqtisodiy barqarorlik.

В данной статье на примере Узбекистана проанализированы уровень структурных изменений в экономиках государств и экономический рост. Рассмотрена взаимосвязь между ними в различных отраслях. В частности, исследованы внешние факторы, оказывающие влияние как на промышленность, так и на сельское хозяйство. Изучены научные исследования ряда учёных и отмечены аспекты, связанные с темой.

Ключевые слова: Экономика Узбекистана, структурные изменения, экономический рост, диверсификация, промышленность, рыночные реформы, цифровизация, экономическая стабильность.

In this article, using the example of Uzbekistan, the level of structural changes in the economies of states and economic growth is analyzed. The proportionality between them in various sectors is examined. In particular, external factors influencing both industry and agriculture are studied. The scientific research of several scholars has been reviewed, and aspects related to the topic are highlighted.

Key words: Economy of Uzbekistan, structural changes, economic growth, diversification, technological development, industry, market reforms, economic stability.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti jadal islohotlar bosqichini boshdan kechirmoqda. Bu jarayonning markazida iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasini yangilash, tarmoqlar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash hamda raqobatbardosh va barqaror rivojlanish modelini shakllantirish masalalari turadi. Tarkibiy o‘zgarishlar – bu iqtisodiyotning alohida tarmoqlari, ishlab chiqarish texnologiyalari va resurslardan foydalanish darajasidagi o‘zgarishlar bo‘lib, ular iqtisodiy o‘shishning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi.

Bugungi kunda sanoatni diversifikatsiyalash, xizmatlar sektorini kengaytirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, shuningdek, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar mamlakatning iqtisodiy o‘shish sur‘atlari va sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu o‘zgarishlar nafaqat yalpi ichki mahsulot tarkibiga, balki bandlik darajasiga, ishlab chiqarish samaradorligiga va investitsion muhitga ham bevosita ta’sir etadi.

Mazkur maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning mohiyati, ularning amalga oshirilish jarayoni hamda iqtisodiy o‘zgarishga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud tendensiyalar asosida mamlakat iqtisodiy siyosati uchun muhim xulosalar va takliflar ilgari suriladi.

Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri masalasi xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar asosan iqtisodiyot tarmoqlari tarkibining o‘zgarishi, ishlab chiqarishning modernizatsiyasi va diversifikatsiya jarayonlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Xorijiy olimlardan S. Kuznets [1], A. Lyuis [2], M. Porter [3], J. Shumpeter [4] va R. Solou [5] asarlarida tarkibiy o‘zgarishlar iqtisodiy o‘zgarishning muhim omili sifatida talqin etilgan. Jahon banki [6], Xalqaro valyuta jamg‘armasi [7], OECD [8] va UNCTAD [9] tomonidan tayyorlangan hisobotlarda esa sanoat va xizmatlar sektorining rivojlanishi, innovatsiyalar hamda raqamli iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyadagi o‘rni alohida ta’kidlangan.

O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlar masalasi mahalliy olimlar tomonidan ham o‘rganilgan. Jumladan, Sh. G‘afurov [10], A. Vahobov [11], D. Tadjibaeva [12], Sh. Xadjibaev [13] va boshqa tadqiqotchilar ishlarida milliy iqtisodiyotda sanoatlashtirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va xizmatlar sektorini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi [14] hamda tegishli vazirliklarning tahliliy materiallarida tarkibiy siljishlar bo‘yicha statistik ma’lumotlar keltirilgan.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili tarkibiy o‘zgarishlar iqtisodiy o‘zgarishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi hamda mazkur mavzuni yanada chuqur o‘rganish zarurligini asoslaydi.

Tarkibiy o‘zgarishlar iqtisodiyotda mavjud tarmoqlar, ishlab chiqarish omillari va resurslar taqsimotida yuz beradigan muhim o‘zgarishlarni ifodalaydi. Ushbu jarayon iqtisodiyotning ichki tuzilmasini yangilash, eskirgan sohalar ulushini qisqartirish va yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi. Iqtisodiy adabiyotlarda tarkibiy o‘zgarishlar uzoq muddatli rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida baholanadi, chunki ular iqtisodiyotning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini oshiradi [15]. Natijada iqtisodiyotda sifat jihatidan yangi rivojlanish bosqichi shakllanadi.

Iqtisodiy rivojlanish jarayonida tarkibiy o‘zgarishlar muhim rol o‘ynaydi, chunki ular ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va iqtisodiy o‘zgarishni barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Tarmoqlar tarkibining o‘zgarishi mehnat unumdorligining oshishiga, yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga hamda yalpi ichki mahsulot hajmining ko‘payishiga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sanoat va xizmatlar sektorining rivojlanishi iqtisodiy o‘zgarish sur‘atlarini tezlashtiradi va iqtisodiyotning tashqi xatarlarga nisbatan barqarorligini kuchaytiradi [16]. Shu sababli tarkibiy o‘zgarishlar iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.


Hozirgi davrda diversifikatsiya va modernizatsiya jarayonlari tarkibiy o‘zgarishlarning asosiy tarkibiy qismlariga aylangan. Diversifikatsiya iqtisodiyotning bir yoqlama rivojlanishining oldini olib, turli tarmoqlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlashga yordam beradi [17]. Modernizatsiya esa ishlab chiqarishda ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, raqamli iqtisodiyot elementlaridan foydalanish va boshqaruv tizimlarini yangilash orqali amalga oshiriladi. Ushbu jarayonlar iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi [18].

O‘zbekiston iqtisodiyotida sanoat tarmog‘i tarkibiy o‘zgarishlarning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda sanoatni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi. Energetika, kimyo, metallurgiya, mashinasozlik va farmatsevtika sohalarida yangi loyihalar ishga tushirildi. Natijada sanoat ishlab chiqarishining o‘sishi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qildi [19]. Davlat statistika ma’lumotlariga ko‘ra, sanoat yalpi ichki mahsulot tarkibida muhim o‘rin egallab kelmoqda [20].

Xizmatlar sektori O‘zbekiston iqtisodiyotida eng tez o‘sayotgan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, tarkibiy transformatsiyaning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Savdo, transport, moliya, turizm, ta’lim

va axborot-kommunikatsiya xizmatlarining kengayishi bandlik va aholining daromadlari o‘shishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Jahon banki tadqiqotlariga ko‘ra, xizmatlar sektorining rivojlanishi iqtisodiy diversifikatsiyani jadallashtirib, iqtisodiyotning tashqi xatarlarga bog‘liqligini kamaytiradi [18]. Ushbu sektor ayniqsa yoshlar bandligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar tarmoqning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Klaster tizimining joriy etilishi, yer munosabatlarining liberallashtirilishi va zamonaviy agrotexnologiyalardan foydalanish ishlab chiqarish hajmi va mahsulot sifati yaxshilanishiga olib keldi [21]. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash ulushining oshishi tarmoqning iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirmoqda.



1-rasm. O‘zbekiston iqtisodiyotida tarmoqlar ulushining o‘zgarishi[29]

Raqamli iqtisodiyot O‘zbekistonda tarkibiy o‘zgarishlarning yangi bosqichini shakllantirmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida elektron hukumat, raqamli moliya va IT-xizmatlar rivojlantirilmoqda. IT-parklar va startaplar sonining ortishi innovatsion muhitni mustahkamlab, iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirmoqda [22].

O‘zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar yalpi ichki mahsulotning o‘shish sur‘atlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, sanoat va xizmatlar sektorining ulushi oshib borishi YaIM tarkibida sifat jihatidan ijobiy siljishlarni yuzaga keltirdi. Yuqori qo‘shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqlarning rivojlanishi iqtisodiy o‘shishning barqarorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Jahon banki tahlillariga ko‘ra, tarkibiy transformatsiya iqtisodiy o‘shishning asosiy manbalaridan biriga aylanmoqda [23].

Tarkibiy o‘zgarishlar bandlik tuzilmasida ham sezilarli o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Mehnat resurslarining qishloq xo‘jaligidan sanoat va xizmatlar sektoriga ko‘chishi mehnat unumdorligining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa xizmatlar sohasi va raqamli iqtisodiyot yangi ish o‘rinlari yaratishda muhim rol o‘ynamoqda. OECD ma’lumotlariga ko‘ra, iqtisodiyot tarkibining murakkablashuvi mehnat unumdorligining o‘shishini tezlashtiradi [24].

Tarkibiy islohotlar investitsiya muhitining yaxshilanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Sanoatni modernizatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish natijasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshdi. Investitsiyalarning ko‘payishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yangi texnologiyalarni joriy etishga xizmat qilmoqda [25].

Uzoq muddatli istiqbolda tarkibiy o‘zgarishlar iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi. Diversifikatsiyalashgan iqtisodiyot tashqi iqtisodiy zarbalarga nisbatan bardoshlilik bilan ajralib turadi. Shu bois tarkibiy islohotlarni izchil davom ettirish barqaror va inklyuziv iqtisodiy o‘shishni ta’minlashga xizmat qiladi [26].

**O‘zbekistonda tarkibiy o‘zgarishlarning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri
(2015–2024 yillar)**

Ko‘rsatkich	YaIM o‘sish sur‘ati(%)	Sanoat ulushi YaIMda(%)	Xizmatlar ulushi YaIMda(%)	Qishloq xo‘jaligi ulushi(%)	To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar (mlrd AQSh dollari)	Bandlikda xizmatlar ulushi (%)
2015-yil	8,0	24,1	38,5	28,0	3,0	36,0
2018-yil	5,4	26,3	41,2	25,0	4,2	38,5
2021-yil	7,4	28,5	43,8	23,2	8,1	41,0
2023-yil	6,0	30,0	45,0	22,5	7,8	43,0
2024-yil	6,2	31,2	46,1	21,8	8,4	44,5

Izoh: Jahon banki, OECD va O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [23], [24], [25].

O‘zbekiston iqtisodiyotida 2015–2024 yillarda amalga oshirilgan tarkibiy o‘zgarishlar YaIM tarkibi va asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan:

YaIM o‘sish sur‘ati: 2015-yildagi 8,0% dan 2024-yildagi 6,2% gacha Sanoat va xizmatlar sektori ulushi Sanoat ulushi 24,1% dan 31,2% gacha, xizmatlar sektori 38,5% dan 46,1% gacha oshgan. Qishloq xo‘jaligi ulushi: 28,0% dan 21,8% gacha kamaygan. Bu mehnat resurslarining sanoat va xizmatlar sektoriga ko‘chishi bilan bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy diversifikatsiyani aks ettiradi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar: 3,0 mlrd AQSh dollari 2021-yilda 8,1 mlrd dollarga ko‘tarilgan va 2023-yilda 8,4 mlrd dollarda barqarorlashgan. Bu investitsiya muhitining yaxshilanganini va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilganini ko‘rsatadi. Bandlikdagi xizmatlar ulushi 36,0% dan 44,5 gacha oshgan, bu mehnat resurslarining sanoat va xizmatlar sektoriga ko‘chishi hamda raqamli iqtisodiyotning ish o‘rinlari yaratishdagi rolini tasdiqlaydi.

Jadvaldagi barcha ko‘rsatkichlar tarkibiy o‘zgarishlar iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir qilganini ko‘rsatadi. Sanoat va xizmatlar sektori o‘sib, qishloq xo‘jaligi ulushi kamayishi iqtisodiy diversifikatsiya va barqaror o‘sishning aniq dalilidir. To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar va bandlikdagi xizmatlar ulushi oshishi tarkibiy islohotlarning ijobiy natijalarini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning sur‘atini pasaytiruvchi bir nechta omillar mavjud. Birinchidan, infratuzilma va transport sohalaridagi yetarli modernizatsiya yo‘qligi ayrim sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini cheklamoqda. Ikkinchidan, kadrlar malakasi va innovatsion bilim resurslarining yetarli darajada rivojlanmaganligi yuqori texnologiyali tarmoqlarni tezkor rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda. Uchinchidan, investitsiya va moliyaviy resurslarning markazlashganligi kichik va o‘rta biznesning yangi loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini cheklaydi. Shu bilan birga, ba’zi sektorlarda regulyator va me’yoriy bazaning murakkabligi iqtisodiy diversifikatsiya jarayonini sekinlashtiradi [27].

Kelgusi davrda O‘zbekiston uchun asosiy vazifa — tarkibiy islohotlarni izchil davom ettirish va iqtisodiy diversifikatsiyani kuchaytirish. Xususan, sanoat va xizmatlar sektorlarini qo‘shimcha qiymat yaratadigan, innovatsion va raqamli texnologiyalar bilan boyitish muhim hisoblanadi. Shuningdek, mehnat bozorini modernizatsiya qilish, kadrlar tayyorlash tizimini kuchaytirish va tadbirkorlikni rag‘batlantirish ustuvor yo‘nalishlar qatoriga kiradi. Infratuzilma loyihalarini rivojlantirish va investitsiya muhitini soddalashtirish ham tarkibiy o‘zgarishlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, barqaror va inklyuziv o‘sish tamoyillarini joriy etish barcha ijtimoiy qatlamlarni iqtisodiy jarayonga jalb qilish, tashqi iqtisodiy zarbalarga bardoshli iqtisodiyot yaratishga yordam beradi. Ushbu chora-tadbirlar uzoq muddatli barqaror rivojlanish va iqtisodiy o‘sishning sifatini yaxshilashga xizmat qiladi [28].

O‘zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish strategiyasida muhim o‘rin egallaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyot tarmoqlari tarkibining o‘zgarishi, sanoat va xizmatlar sektorining ulushi oshishi hamda qishloq xo‘jaligi ulushining qisqarishi iqtisodiy o‘sish sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Bu

jarayonlar resurslardan samaraliroq foydalanish va yuqori qo‘shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqlarni rivojlantirish imkonini bermoqda.

Shuningdek, tarkibiy islohotlar investitsiya faolligining oshishi va bandlik tuzilmasining ijobiy tomonga o‘zgarishiga olib kelmoqda. Xizmatlar sohasi va sanoat tarmoqlarida yangi ish o‘rinlarining yaratilishi aholining daromadlari oshishiga hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Raqamli iqtisodiyot va innovatsion faoliyatning rivojlanishi esa iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Biroq, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, kadrlar salohiyatining cheklanganligi va ayrim me‘yoriy to‘siqlar tarkibiy o‘zgarishlar sur‘atini sekinlashtirayotgan omillar sifatida saqlanib qolmoqda. Shu sababli, kelgusida tarkibiy islohotlarni izchil davom ettirish, investitsiya muhitini yaxshilash va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, tarkibiy o‘zgarishlar O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror, diversifikatsiyalashgan va tashqi iqtisodiy xatarlarga bardoshli bo‘lishini ta‘minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan izchil siyosat mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishi va ijtimoiy farovonligini ta‘minlashga xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kuznets, S. (1966). *Modern Economic Growth*. Princeton University Press.
2. Lewis, W. A. (1954). *Economic Development with Unlimited Supplies of Labour*. Manchester School.
3. Porter, M. (1990). *Competitive Advantage of Nations*. Free Press.
4. Schumpeter, J. (1942). *Capitalism, Socialism and Democracy*. Harper & Brothers.
5. Solow, R. (1956). A Contribution to the Theory of Economic Growth. *Quarterly Journal of Economics*.
6. World Bank. (2019). *Structural Change and Economic Development*.
7. IMF. (2023). *World Economic Outlook*.
8. OECD. (2022). *Economic Policy Reforms: Going for Growth*.
9. UNCTAD. (2022). *Digital Economy Report*.
10. G‘afurov, Sh. (2018). *O‘zbekiston iqtisodiyoti: rivojlanish strategiyalari*. Tashkent.
11. Vahobov, A. (2020). *Milliy iqtisodiyot va innovatsiyalar*. Tashkent.
12. Tadjibaeva, D. (2019). *Sanoat va xizmatlar sektorini modernizatsiya qilish*. Tashkent.
13. Xadjibaev, Sh. (2021). *Diversifikatsiya va iqtisodiy rivojlanish*. Tashkent.
14. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2015–2024). *Yillik statistik to‘plamlar*.
15. Abdullayev, B. (2024). *O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning zamonaviy yo‘nalishlari*.
16. Saparov, R., Xolmatov, O. (2025). *Modern Directions of Structural Transformations in Uzbekistan’s Economy*.
17. Rustamova, D. (2023). *Diversifikatsiya va iqtisodiy modernizatsiyaning nazariy asoslari*.
18. World Bank. (2023). *The Promise of Services-Led Growth in Uzbekistan*.
19. Karimov, F. (2024). *O‘zbekistonda sanoat tarmog‘ini modernizatsiya qilish yo‘nalishlari*.
20. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2024). *Milliy hisoblar to‘plami*.
21. Turaev, H. (2023). *Qishloq xo‘jaligida tarkibiy islohotlar va klaster tizimi*.
22. Nishonov, A., Qosimova, S. (2024). *Raqamli iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish*.
23. World Bank. (2024). *Uzbekistan Economic Update: Structural Transformation and Growth*.
24. OECD. (2023). *Productivity and Employment in Emerging Economies*.
25. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2024). *Iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlari*.
26. Saparov, R. (2024). *Barqaror iqtisodiy o‘shish va tarkibiy islohotlar o‘rtasidagi bog‘liqlik*.
27. Saparov, R. (2024). *Tarkibiy islohotlar va iqtisodiy rivojlanish cheklavlari*.
28. World Bank. (2024). *Uzbekistan Economic Outlook: Inclusive Growth and Structural Transformation*.
29. <https://oz.sputniknews.uz/20250502/ozbekiston-yaim-iqtisodiyot-tarmoqlari-49172310.html>